

## ISIRIQNING BIZ BILMAGAN FOYDALI XUSUSIYATLARI

**Tugalova Maftuna Ixtiyor qizi**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada isiriqning juda ko‘p dorivorlik xususiyatlari keng tarzda yoritilgan. Uning xalq tabobatida hamda farmasevtika sanoatida qanday tarzda qo‘llanilishi bayon qilingan.

**Kalit so‘zlar:** Isiriq (Peganum), alkaloidlar, yog‘ moddalari, bo‘yoq moddalari, shamollash, nevrasteniya, katarakta, gripp, koronavirus, stiren, limonen, RNK replikatsiyasi.

## THE USEFUL PROPERTIES OF INCENSE THAT WE DON'T KNOW

### ABSTRACT

This article is very much medicinal of incense features are covered in detail. In his folk medicine and how it is used in the pharmaceutical industry.

**Key words:** Frankincense (Peganum), alkaloids, fatty substances, dye substances, colds, neurasthenia, cataracts, flu, coronavirus, styrene, limonene, RNA replication.

Isiriqning biz bilmagan foydali xususiyatlari juda ko‘p. Uning tarkibida mikroblarni o‘ldiruvchi moddalar borligi sababli shamollaganimizda yoki gripp bo‘lganimizda qurigan holdagi o‘tini tutatib hidlaymiz, uylarni ham shu bilan zararsizlantiramiz. Shu orqali turli xil viruslar hamda infeksiyalar ko‘payishining oldini olamiz. Ammo isiriq faqat virus va infeksiyalarga qarshi kurashibgina qolmay, balki uning boshqa juda ko‘plab shifobaxsh xususiyatlari ham bor.

Isiriq (Peganum) — isiriqdoshlar oilasiga mansub ko‘p yillik o‘simlik turkumi hisoblanadi. Ildizi yo‘g‘on, 2-3 smga yetadigan o‘q ildiz. Bo‘yi 60—70 sm. Poyasi sershox. Barglari kulrang yoki yashil, poyada navbat bilan joylashgan, shakli patsimon qirqilgan. Gullari sarg‘ish-oq, shoxining uchida joylashgan, changchilari juda ko‘p. Mevasi dumaloq ko‘sakcha bo‘ladi. Isiriqning 6 ta turi ma‘lum bo‘lib, O‘zbekistonda faqat 1 turi (P. harmala) o‘sadi.

Isiriq (P.harmala), asosan, Yevropaning janubiy mintaqalarida, Kavkaz va O‘rta Osiyoning cho‘l va yarim cho‘llarida, aholi yashaydigan yerlarda, ekinlar orasida va tog‘ yon bag‘irlarida uchraydi. Tarkibida alkaloidlar (garmin, garmalin, peganin va b.), yog‘, bo‘yoq va boshqa turli moddalar bor. Qadimdan tabobatda turli xildagi kasalliklar (tutqanoq, tomoq og‘rig‘i, zaxm)ni davolashda, siydik haydovchi, terlatuvchi vosita sifatida ishlatilib kelinadi. Urug‘idan jun gazlama va shoyilarni bo‘yash uchun bo‘yoq olinadi.

Xalq tabobatida isiriq o‘tidan tayyorlanadigan vannalar revmatik artrit, qo‘tir hamda boshqa teri kasalliklarida, o‘tining qaynatmasi esa shamollash, bezgak, nevrasteniya, quyonchiq kasalliklarida foydali hisoblanadi. Terlatuvchi va gijja tushiruvchi vosita sifatida ham buyuriladi. Bosh og‘rig‘i, turli badbo‘y islarni yo‘qotish, ko‘z tegishi va go‘yo har xil ofatlarni qaytarish maqsadida ham isiriqdan foydalaniladi. Isiriq (P.harmala)ning tarkibida uchraydigan garmin asab tizimini tinchlantiradi, bosh miyaning yallig‘lanish asorati – qaltirashni davolashda hamda uxlatuvchi modda (dori) sifatida ishlatilib kelingan.

Isiriq (P.harmala) urug‘i qaynatmasi odamlarning nafas olishi qiyinlashganda juda katta yordam beradi, ya‘ni nafas qisishida zig‘ir urug‘i bilan aralashtirib ichilsa, bu xastalikka davo bo‘ladi. Isiriq (P.harmala)ni tinchlantiruvchi vosita sifatida ham qo‘llash mumkin. Bu xususiyati, ayniqsa, uyqusizlikda juda yaxshi foyda beradi.

O‘simlikning shirasi – katarakta kasalligida ancha samara beradi, bunda isiriq qaynatmasi bilan yuz yuviladi. Isiriq (P.harmala)ning sut shirasi tibbiy paxtaga

shimdirilib, qichimadan qiynalgan joylarga 10 kun mobaynida qo'yilsa, qichimani tuzatadi.

Yurak faoliyatini yaxshilash maqsadida isiriq urug'i, sedana, kamfora, murch, petrushka, qora zira, za'faron teng miqdorda olinib, yaxshilab aralashtiriladi. So'ngra asal yoki shakar qo'shib kuniga bir mahal ichiladi. Ich dam bo'lganda isiriqqa petrushka urug'i, yalpiz, zanjabil kabilarni aralashtirilib ichilsa, shifo bo'ladi.

Yana bulardan tashqari, Isiriq (P.harmala) peshob haydovchi, tish og'rig'ini, oshqozon-ichak tizimi kasalliklarini davolovchi xususiyatlari ham mavjud. Shuningdek, isiriq urug'lari oshqozon og'rig'ini qoldirishda ham yaxshi samara beradi. Bunda isiriqning pishgan urug'lari olinib, suv bilan birga ichiladi.

Buxoro viloyat o'rmon xo'jaligi boshqarmasiga qarashli cho'llarda yetishtirilayotgan isiriq (P.harmala) o'simligiga karantin kunlarida talab yanada oshdi. Bu isiriqning dorivorlik xususiyatlari bilan bog'liq.

Avvalo, shuni aytish lozimki, isiriq chindan ham shifobaxsh xususiyatga ega dorivor o'simlik hisoblanadi. U ko'plab birikmalar, ayniqsa, alkaloidlarga boy. O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi institutida dunyoda ilk bor isiriq alkaloidlarini ajratish, fizik-kimyoviy va farmakologik xususiyatlarini tadqiq etish ishlari o'tgan asrning 60-yillaridan boshlangan bo'lib, bu borada ko'pgina ishlar amalga oshirilgan. Hozirda ham isiriq tarkibidagi moddalarni tadqiq etish borasida ishlar davom etmoqda. Jumladan, isiriqdan olingan alkaloidlar ekstrakti grippning oldini olishi turli tadqiqotlarda isbotlangan.

Isiriq alkaloidlarining gripp qo'zg'atuvchi viruslar RNK replikatsiyasini to'xtatishi, virusning polimeraza faolligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. E'tiborlisi, koronavirus ham gripp virusi singari RNK saqlovchi hisoblanadi. Bundan tashqari, isiriq tarkibidagi alkaloidlarning shishlarga qarshi samarali vosita ekani ham isbotlangan.

Shuningdek, isiriq alkaloidlarining zararli mikroorganizmlarning rivojlanishini to'xtatishi ma'lum qilingan. Isiriq tutatilganda ayrim birikmalar ajralishi va havodagi

zararli mikroorganizmlarga ta'sir qilishi ham isbotlangan. Isiriq tutatilganda  $\alpha$ -pinen, limonen va stirenlar ajraladi va bu birikmalar mikroorganizmlarni dezinfeksiya qilish xususiyatiga ega.

Isiriqning foydali jihatlarini yana davom ettirish mumkin. Masalan, isiriq (P.harmala) oyoq og'rig'ini davolashda ham ancha samarali vosita hisoblanadi. Isiriq (P.harmala)ning bargli poyasi olinadi va uni oyoq kiyimi ichiga solib kun davomida bosib yuriladi. Bu usul nafaqat og'riqni, balki oyoqdagi noxush hidlarni ham yo'qotishga yordam beradi. Avvalo, xastalikka chalinganda kimyoviy dori preparatlariga emas, balki tabiiy dorivor giyohlarga murojaat qilinsa, sog'lik uchun juda katta foyda bo'ladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. M.Muxtorov. 1000 dardga 1000 davo. Shifobaxsh o'simliklar bilan davolash. T.: "Adabiyot uchqunlari" - 2016, 272 bet.
2. <https://uz.m.wikipedia.org>
3. <https://avitsenna.uz>
4. <https://xs.uz>
5. <https://kun.uz>